

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil “24” 08 dagi 4-sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil “25” 08 dagi 365-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’limi standartlari. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’oriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiyl tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)</i> ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)</i> ta’lim yo‘nalishi bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsif.....	4
1.2.1.	<i>60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	<i>60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari....	5
1.2.4.	<i>60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlearning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlearning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
	Bibliografik ma’lumotlar.....	9
	Kelishuv varag‘i.....	10

1. 60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiyl tavsifi

60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit–modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi.

Malaka talabi **60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruva xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor–o‘qituvchilar;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatni nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota–onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) ta’lim yo‘nalishi bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.

60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) – “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u davlat, milliy

olimpiya qo‘mitasi, federatsiyalar, olimpiya zaxiralar kollejlari, oliv mahoratli va ixtisoslashtirilgan sport maktablari hamda boshqa muassasalarning turli soha va tarmoqlarini boshqarish, ularni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish istiqbollarini belgilash bo‘yicha sportni boshqarish, tashkiliy masalalar yechimlarini sport tadbirlarinining rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, sport tashkilotlari va boshqalar;
- menejment (sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) ning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;
- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondashuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag‘batlantirish jarayonlari.

60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umukasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning kasb ta’limi yo‘nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari:

- tashkiliy–boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;
- axborot–tahliliy faoliyat;
- ilmiy–tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.

60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6–malaka darajasi hamda

bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim.

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilariga quyidagi kvalifikatsiyalar beriladi:

- jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha yo‘riqchi-uslubchi;
- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tashkiliy-boshqaruv faoliyati mutaxassisi;
- jismoniy tarbiya o‘qituvchisi.

Tashkiliy–boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo‘llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxona va ularning alohida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish. mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo‘g‘in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- korxonalar tashkiliy–boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy–iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirop etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- har bir sportchini strategik tayyorlash va qobiliyatini individual rivojlantirish rejasini ishlab chiqish;
- sportchining o‘quv–trenerovka, musobaqa oldi, musobaqa jarayonlariga psixologik tayyorgarligini aniqlash;
- jamoaviy treninglarni o‘tkazish (jamoani shakllantirish, jamoaviy jipslik, nizolarni bartaraf etish, jamoani rivojlantirish).

Axborot–tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhitni omillari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
- loyihalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash; boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ilmiy–tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy–tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan–texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy–texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;
- sport tadbirlarini tashkil etishni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash. soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi sport biznes–loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- sport biznesini tashkil etish, sport seksiyalarni yaratish.

2. 60411200 – Menejment (Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy–iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish; sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me’yoriy–huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo‘llash, sport tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- strategik va operatsion sportda boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarni, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- *menejment (sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha raqobatdoshlikni ta’minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651.1/7

Guruuh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib – o'r ganish natijalari, o'quv davri sport tadbirlari, sport tadbirlarini tashkil etish, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy–boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ilmiy tadqiqot jarayoni

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILDI:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti



M. Boltabayev

202 -yil " "

M.O.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi

Olyi va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
huzuridagi Olyi ta'limi rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tatbiq etish markazi



M. Esonov

Direktor V. b. " "

202 -yil " "

M.O.

O'zbekiston Respublikasi
Turizm va sport vazirligi



A. Akkulov

Vazir o'rindbosari " "

M.O.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi
vazirligi

Respublika ta'lif markazi




Sh. Sattorov

Direktor " "

202 -yil " "

M.O.

O'zbekiston Milliy
Olimpiya Qo'mitasi



Raisning birinchi
o'rindbosari " "

M.O.

R. Irmatov

202 -yil " "

Respublika Olimpiya zahiralari kolleji

A. Mamadaliyev



Direktor " "

202 -yil " "